MATEMATIKA



Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
2-sinfi uchun darslik

O‘zbekiston Respublikasi
Xalq ta’limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan

Yangi nashr

Toshkent – 2021

UO‘K 51(075.3)
KBK 51ya71
J 87

Tuzuvchilar:

Lolaxon O‘rinboyeva, Shuxrat Ismailov,
Nigora Ruzikulova, Umid Raxmonov, Mamanazar Jumayev,
Nodira Ismailova, Nazimaxanum Usmanova

Xalqaro ekspert:

Marcelo Staricoff

Taqrizchilar:

I. Tillaboyev – Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumanidagi 65-IDUMIning oliy toifali matematika fani o‘qituvchisi;

M. Azizova – Toshkent shahri Mirzo Ulug‘bek tumanidagi 208-maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

Matematika 2-sinf [Matn]: darslik / L.O‘rinboyeva [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 192 b.

UNICEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda tayyorlandi.


O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi V.I. Romanovskiy nomidagi matematika instituti xulosasi asosida takomillashtirildi.

Original maket va dizayn konsepsiyasi Respublika ta’lim markazi tomonidan ishlandi.

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

SHARTLI BELGILAR:

 — og‘zaki bajaramiz

 — aqlni charxlaymiz

 — yozma bajaramiz

 — taqqoslaymiz

 — birga bajaramiz

 — amaliy topshiriq

 — uyda bajaramiz

ISBN 978-9943-7299-9-5

© Respublika ta’lim markazi, 2021

MUNDARIJA

1-SINFDA O‘TILGANLARNI TAKRORLASH 5

1-BOB.
100 ICHIDA QO‘SHISH 12

2-BOB.
100 ICHIDA AYIRISH 32

3-BOB.
GEOMETRIK SHAKLLAR 52

4-BOB.
SONLARNI KO‘PAYTIRISH 68

5-BOB.
SONLARNI BO‘LISH 88


6-BOB. SONLI VA
HARFLI IFODALAR. TENGLAMALAR 117

7-BOB.
BUTUNNING BO‘LAKLARI. VAQT 140

8-BOB.
MA’LUMOTLAR BILAN ISHLASH 162

TAKRORLASH 175

QIZIQARLI VA MANTIQIY TOPSHIRIQLAR 186




1-SINFDA O‘TILGANLARNI TAKRORLASH




1-dars | 100 ichida qo‘shish va ayirish


1. Hisoblashni tushuntiramiz.




30 + 20 = ?



50 − 20 = ?



50 − 30 = ?



30	50	50
+ 20	− 20	− 30
☐	☐	☐

2. Bo‘laklab hisoblaymiz.

30 + 40 + 20 = ☐

? ?


20 + 30 + 40

90 − 40 − 10 = ☐

? ?

90 − 10 − 40

3. Nechta o‘yinchoq qoldi?

Bor edi	Keltirildi	Sotildi	Qoldi
 40 ta	30 ta	50 ta	?

4. 1 dan 30 gacha bo‘lgan sonlar ichida nechta toq son bor? 1 dan 41 gacha bo‘lgan sonlarda-chi?

5. Bo‘sh kataklarga mos sonlarni yozamiz.

10	20	30	40	50	60

□ + □ = 80


□ − □ = 20


6. Hisoblaymiz.

20 + 10 20 − 10 40 + 20 40 − 40 50 + 50

2-dars | 100 ichida qo‘shish va ayirish


1. Hisoblashni tushuntiramiz.






21 + 6 = ?

21 + 6 = □






25 − 3 = ?

25 − 3 = □


2. Natijalarni taqqoslaymiz.

48 − 8 ◯ 25 + 3 84 + 2 ◯ 88 − 2

3. Berilgan o‘lchamdagi kesmalarni chizamiz.



4. Namunaga ko‘ra davom ettiramiz.



5. Hisoblaymiz.

14 cm + 5 cm	81 cm + 7 cm	57 cm − 2 cm
43 cm + 6 cm	34 cm − 4 cm	99 cm − 9 cm

3-dars | Yig‘indi va ayirmani topish

1. Hisoblashni tushuntiramiz.

19 + 30 =

10 10 10

19 29 39 49

38 − 30 =

10 10 10

8 18 28 38

2. Hisoblaymiz.

46+3=40+(6+3)= ☐

46+30=(40+30)+6= ☐


40 6

76−3=70+(6−3)= ☐

76−30=(70−30)+6= ☐


70 6

3. Behilar soni olmalar sonidan nechta kam?



☐ − ☐ = ☐

4. Ketma-ketlikni davom ettiramiz.



5. Qaysi sonlar tushirib qoldirilgan?




6. Bo‘sh kataklarni to‘ldiramiz.

□□ + 4 = 14 + 10 24 + □□ = 40 + 4


11 + 20 = 11 + □□ 41 + 30 = □□ + 51

4-dars | Yig‘indi va ayirmani topish


1. Hisoblashni tushuntiramiz.



o‘nlik	birlik	o‘nlik	birlik
5	2	4	5



$$\begin{array}{r} 22 \\ +\ 12 \\ \hline \square \end{array}$$




$$\begin{array}{r} 25 \\ -\ 11 \\ \hline \square \end{array}$$

2. Yulduzchalar o‘rniga mos sonlarni qo‘yamiz.


$$\begin{array}{r} 26 \\ +\ 3* \\ \hline 58 \end{array} \qquad \begin{array}{r} 3* \\ +\ 45 \\ \hline 76 \end{array} \qquad \begin{array}{r} *1 \\ -\ 20 \\ \hline 31 \end{array} \qquad \begin{array}{r} 3* \\ +\ *4 \\ \hline 67 \end{array} \qquad \begin{array}{r} *9 \\ -\ 2* \\ \hline 58 \end{array} \qquad \begin{array}{r} 7* \\ -\ 2* \\ \hline 57 \end{array}$$

3. Nechta shirinlik qoldi?



4. Qaysi bir xonali ikkita sonning yig‘indisi 18 ga teng? Qaysi turli bir xonali ikkita sonning yig‘indisi 17 ga teng?

5. Xatolikni topamiz.




6. Hisoblaymiz.

34	45	61	28	54	87	78	95
+ 35	+ 32	+ 13	+ 71	− 10	− 50	− 35	− 53

5-dars | Geometrik shakllar va o‘lchashlarga doir masalalar

1. Rasmdagi shakllar nechtadan?




– ? ta

– ? ta

– ? ta

2. Qarichlab o‘lchaymiz.





3. Natijalarni taqqoslaymiz.


10 + 40 ◯ 50 − 30


21 + 8 ◯ 8 + 21


46 + 13 ◯ 62 − 51

89 − 77 ◯ 56 + 12

4. Rasm asosida narsalar uzunligini topamiz va yozamiz.








5. Bir xil shakldagi sonlar yig‘indisi va ayirmasini topamiz.


Namuna:
12 + 35 = 47
35 − 12 = 23




1-BOB | 100 ICHIDA QO‘SHISH




1-dars | Sonlar nuri



1. **Eslaymiz:** nurda sonlarni joylashtiramiz. Sonlar nuri hosil bo‘ladi.





Qalamlar soni nechtadan ortib borayapti? Tushuntiramiz.






2. Sonlar nurida qaysi sonlar tushirib qoldirilgan?







3. Tikuvchi 54 metr matoning 12 metridan liboslar tikdi. Necha metr mato qoldi?






4. Harflarda qanday sonlar yashirilgan? Kim tez topadi?






5. Sonlar nurini chizamiz. Bo‘sh kataklarga mos sonlarni yozamiz.



2-dars | Sonlar nuri

1. Chizmalar asosida hisoblaymiz.



0 + 3 = ? 4 + 1 = ? 8 − 2 = ? 9 + 3 = ?




2. Bo‘sh kataklarga mos sonlarni qo‘yamiz.


12 33 21 11 44

□ + □ = 23 □ + □ = 54

3. Ifodalar tuzib, qiymatlarini topamiz.




4. Berilgan nuqta orqali yana bitta to‘g‘ri chiziq o‘tkazilsa, nechta nur hosil bo‘ladi?



5. Hisoblaymiz va sonlar nurida ifodalaymiz.


34 + 21




72 + 5 56 − 22 93 − 41


3-dars | Ikki xonali sonlar

1. Sonlarda nechta o‘nlik va nechta birlik bor?


O‘nlik	Birlik
	



63 birlik → ___ o‘nlik ___ birlik




☐ o‘nlik+ ☐ birlik=37




☐ o‘nlik+ ☐ birlik=46

2. Namuna asosida mos sonlarni yozamiz.



31				

3. Xonqizi binafshagacha yana necha santimetr yurishi kerak?



4. Namunaga asosan keyingi sonlarni yozamiz.




5. Berilgan sonlarni o‘nlik va birliklarga ajratamiz.

Namuna: 13 = 1 ta o‘nlik + 3 ta birlik

78 = ☐ ta o‘nlik + ☐ ta birlik
30 = ☐ ta o‘nlik + ☐ ta birlik
44 = ☐ ta o‘nlik + ☐ ta birlik
60 = ☐ ta o‘nlik + ☐ ta birlik

4-dars | Ikki xonali sonlar


1. Sonni xona qo‘shiluvchilari yig‘indisi ko‘rinishida tasvirlaymiz:



56 = 50 + ☐ 56 = ☐ + 6 56 = ☐ + ☐

2. Namuna asosida mos sonlarni yozamiz.

Namuna: 64 = 60 + 4



3. Bo‘sh joylarga qanday shakllar mos?



4. Tenglik to‘g‘ri bo‘lishi uchun yana nechta qush kerak?




5. Sonlarni xona qo‘shiluvchilari yig‘indisi ko‘rinishida yozamiz.

22 = □ + □	76 = □ + □	83 = □ + □
45 = □ + □	79 = □ + □	92 = □ + □

5-dars | 100 ichida sonlarni xonadan o‘tib qo‘shish usullari

1. Hisoblash qanday bajarilgan?



35 + 5 = □

30 5


5 + 5 = □

10 + 30 = □


2. Hisoblaymiz.

62 + 8 = (2) 74 + 6 = 81 + 9 = 37 + 3 =

3. Shaklda nechta uchburchak bor?



4. 3 ta sariq koptokcha massasi nechta qizil koptokcha massasiga teng?




5. Hisoblaymiz.

39 + 1	66 + 4	82 + 8
67 + 3	45 + 5	71 + 9

6-dars | 100 ichida sonlarni xonadan o‘tib qo‘shish usullari


1. Hisoblash qanday bajarilgan?




2. Hisoblaymiz.

25 + 5	44 + 6	61 + 9	58 + 2	73 + 7

3. Jami necha kilogramm sabzavot sarflangan?



4. Pastdagi shakllar yuqoridagi qaysi shakllardan yasalgan?





5. Qaysi juftlikdagi sonlar yig‘indisi o‘zaro teng?

27	3	48	2	6	54	4	46	81	9

7-dars | 100 ichida sonlarni xonadan o‘tib qo‘shish usullari

1. Hisoblashlarni tushuntiramiz.







2. Hisoblaymiz.

28 + 3 71 + 9 54 + 7 69 + 4 87 + 7


3. Iroda “Matematik bellashuv”da 14 ta misol va 8 ta masala yechdi. Ulardan ikkitasini yechishda xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, u nechta topshiriqni to‘g‘ri bajargan?



4. Mevalar o‘rnidagi mos sonlarni topamiz va natijalarni hisoblaymiz.




5. Yig‘indilarni topamiz.




8-dars | 100 ichida sonlarni xonadan o‘tib qo‘shish usullari

1. 1 ta sariq koptokcha massasi nechta qizil koptokcha massasiga teng?



2. 27 ga 8 ni qo‘shamiz:



27 + 8 = 35

o‘nlik	birlik
2	7
+	8

7 birlik + 8 birlik = 15 birlik

o‘nlik	birlik
1 2	7
+	8
	15

1 o‘nlikni o‘nliklar xonasiga ko‘chiramiz.

o‘nlik	birlik
1 2	7
+	8
3	5

1 o‘nlik + 2 o‘nlik = 3 o‘nlik


3. Hisoblaymiz.

27	48	58	64	67
+ 3	+ 9	+ 4	+ 7	+ 5


4. Jami yo‘lovchilar nechta?



21 nafar



23 nafar



22 nafar


5. Varaqni buklash orqali simmetriya o‘qini ko‘rsatamiz.



6. Hisoblaymiz.


67	45	82	79	90
+ 3	+ 5	+ 8	+ 1	+ 10

9-dars | 100 ichida sonlarni xonadan o‘tib qo‘shish usullari (takrorlash)



1. O‘rin almashtirish xossasidan foydalanib hisoblaymiz.

3 + 39 = 42	39 + 3 = 42	6 + 48 = ☐	7 + 49 = ☐	7 + 75 = ☐	9 + 82 = ☐



2. Kompyuterlar noutbuklardan nechta ko‘p?





3. Tasmalarning qaysi biri eng qisqa? Qaysi biri uzunroq, qisqaroq?






4. Katakchalar o‘rniga sonlar yozamiz va hisoblaymiz.

2	3	4	5	6

(☐ + ☐) + 7 = 14

7 – (☐ + ☐) = 2




5. Hisoblaymiz.

8 + 24	9 + 42	21 + 68	57 – 36	59 – 44	89 – 54

10-dars | 100 ichida sonlarni xonadan o‘tib qo‘shish usullari

1. Hisoblashlar qanday bajarilgan?



28 + 12 = □

20 8 10 2

20 + 10 = □


8 + 2 = □

30 + 10 = □


2. Hisoblaymiz.

35 + 15 62 + 28 79 + 21 83 + 17

3. Tarozi pallasiga nechta olma, banan va anor qo‘yish kerak?



4. Uchta idishda jami necha kilogramm asal bor?



5. Bo‘sh kataklarga mos sonlarni yozamiz.


42 + □ > 69

89 − □ < 53

21 42 36 27 26 51

11-dars | 100 ichida sonlarni xonadan o‘tib qo‘shish usullari

1. Hisoblashlar qanday bajarilgan?




2. Hisoblaymiz.

45 + 15	67 + 23	82 + 18	79 + 21

3. Geometrik shakllar nechtadan?



4. Qovun, tarvuz va tarozi toshi birgalikda 22 kg. Tarvuz 11 kg, qovun 9 kg bo‘lsa, tarozidagi toshning massasini topamiz.




5. Hisoblaymiz.

20 + 60	35 + 35	42 + 18	64 + 16	28 + 72	11 + 89

12-dars | 100 ichida sonlarni xonadan o‘tib qo‘shish usullari

1. Hisoblashlar qanday bajarilgan?



26 + 28 = □

20 6 20 8

20 + 20 = □

6 + 8 = □

40 + 14 = □

2. Sonlarni o‘nlik va birliklarga ajratib hisoblaymiz.

44 + 17 63 + 19 78 + 13


3. Har bir parrandaning massasini topamiz.




4. Taqqoslaymiz.

37 + 19 ◯ 62 53 − 22 ◯ 71 84 ◯ 92 − 31

5. Shakllar asosida ifodalar tuzib, hisoblaymiz.




□ + □ = □



□ + □ = □

13-dars | 100 ichida sonlarni xonadan o‘tib qo‘shish usullari

1. Hisoblashni tushuntiramiz.



o‘nlik	birlik
4	8
+ 2	7

8 birlik + 7 birlik = 15 birlik

o‘nlik	birlik
1 4	8
+ 2	7
	5

1 o‘nlikni o‘nliklar xonasiga ko‘chiramiz.

o‘nlik	birlik
1 4	8
+ 2	7
7	5

1 o‘nlik + 4 o‘nlik + 2 o‘nlik = 7 o‘nlik


2. Hisoblaymiz.

85	6	28	42	33	67
+ 9	+ 67	+ 17	+ 29	+ 57	+ 15

3. Qaysi ifodaning qiymati 74 ga teng?

25 + 33 | 31 + 19 | 28 + 48 | 36 + 38

4. Bir kunda qancha shakar sotilgan?



5. Hisoblaymiz.

7	68	29	35	36	57
+ 78	+ 9	+ 32	+ 25	+ 36	+ 19

14-dars | 100 ichida sonlarni xonadan o‘tib qo‘shish usullari (takrorlash)

1. Tenglik to‘g‘ri bo‘lishi uchun bo‘sh kataklarga mos sonlarni yozamiz.

98 − 10 = 58 + ☐ 19 + 39 = ☐ − 2

2. Natijalarni topamiz.

23 + 17 = 40 → 40 + 39 = ☐	38 + 25 = ☐ → ☐ + 19 = ☐	56 + 35 = ☐ → ☐ + 7 = ☐

3. Samokat va velosipedlar jami nechta?



– 54 ta

– ?, 18 ta kam

– ? ta

4. Qaysi shakllarning 4 ta tomoni bor?



5. Noma’lum qo‘shiluvchilarni topamiz.


16 + *5 = 31	19 + 1* = 32	34 + *8 = 52	*6 + 28 = 44	1* + 43 = 62

6. Hisoblaymiz.

15 + 35 = 50 → 50 + 48 = ☐	38 + 27 = ☐ → ☐ + 25 = ☐	43 + 29 = ☐ → ☐ + 19 = ☐

15-dars | Qo‘shishga doir masalalar

1. Jami jihozlar nechta?



2. Hisoblaymiz va natijalarni taqqoslaymiz.


31 + 57 ◯ 62 − 52	37 − 27 ◯ 48 − 17
47 + 13 ◯ 38 + 22	91 − 51 ◯ 36 + 44

3. Uchinchi chavandoz necha kun sayohat qilgan?


1-chavandoz – 19 kun
2-chavandoz – ?, 6 kun ortiq
3-chavandoz – ?, 5 kun kam



4. Hisoblaymiz.




5. Stullar soni nechta? Jami stol va stullar-chi?



16-dars | Qo‘shishga doir masalalar

1. Jadval yordamida noma’lumlarni topamiz.




Bor edi	Sotildi	Qoldi
78 kg	49 kg	?
78 kg	? kg	29 kg
? kg	49 kg	29 kg

2. Hisoblaymiz va natijalarni taqqoslaymiz.


64 − (40 + 14) ☐ 87 − 87 48 + 30 ☐ 30 + (99 − 50)

3. Anvar va Nodira 1 daqiqada jami nechta so‘z o‘qigan?



4. Jadvalni chizamiz va rasm asosida uni to‘ldiramiz.

O‘lchami \ Rangi	Yashil	Qizil	Siyohrang	Jami
Katta				
Kichik				
Jami				



17-dars | Qo‘shishga doir masalalar

1. Jadval yordamida noma’lumlarni topamiz.

Bor edi	Olib kelindi	Jami
 42 ta tuvakda gul	45 ta	? ta
? ta	45 ta	87 ta
42 ta	? ta	87 ta


2. Hisoblaymiz va natijalarni taqqoslaymiz.

67 − 40 + 32 ▢ 52 + 28 69 − 68 ▢ (29 + 48) − 76

3. Shakllarni davom ettiramiz va chizamiz.



4. Ifodalar tuzamiz.



5. Hisoblaymiz.

53 + 8	6 + 87	55 + 35
36 + 27	44 + 38	88 + 12

18-dars | Qo‘shishga doir masalalar (takrorlash)




1. Ifodalarning qiymatini topamiz.

29	5	67	3	4
+ 6	+ 48	+ 4	+ 48	+ 77




2. Jami necha nafar o‘quvchi muzeyga borgan?





3. Qaysi ifodaning qiymati 31 dan katta?

58 − 42 | 51 − 21 | 64 − 21 | 74 − 51




4. Namuna asosida jadvalni to‘ldiramiz.

+	3	15	38	53
27	27 + 3 = 30			
46				



5. Namuna asosida ikkinchi shaklga mos keluvchi shaklni chizamiz.





6. Hisoblaymiz.


15 + 65 62 + 19 47 + 13 54 + 9


2-BOB | 100 ICHIDA AYIRISH



1-dars | 100 ichida sonlarni xonadan o‘tib ayirish usullari

1. Hisoblashlarni tushuntiramiz.





30 − 8 = □

20 10


10 − 8 = □

20 + □ = □

2. Hisoblaymiz.

30 − 7 60 − 2 80 − 5 50 − 8

3. Qaysi geometrik shakl ko‘p?



4. Bo‘sh kataklarga mos sonlarni yozamiz.

31 45 69 83

□ − □ = □ − □

5. Dars jadvali asosida berilgan fanlarning haftada necha marta bo‘lishini topamiz.


Fan	Matematika	Musiqa	Ingliz tili	Jami
Bir haftada				

6. Hisoblaymiz.

20 − 4 50 − 3 70 − 1 40 − 8

2-dars | 100 ichida sonlarni xonadan o‘tib ayirish usullari


1. Hisoblashni tushuntiramiz.



2. Hisoblaymiz.

20	50	60	90	90
– 7	– 1	– 8	– 2	– 5
____	____	____	____	____

3. Simmetrik shakllarni yasaymiz.



4. Ifodalar tuzamiz va qiymatini topamiz.


50 bilan 8 ning ayirmasi; 70 bilan 5 ning ayirmasi;
80 bilan 1 ning ayirmasi.

5.

50 – 4 70 – 7 90 – 3 100 – 7

3-dars | 100 ichida sonlarni xonadan o‘tib ayirish usullari

1. Hisoblashni tushuntiramiz.



53 – 8 = ☐

3 5

53 – 3 = ☐

50 – ☐ = ☐

53 – 8 = ☐

40 13

13 – 8 = ☐


40 + ☐ = ☐

2. Ifodalar tuzamiz va qiymatini topamiz.


	−7
40	
31	
65	

	+4
42	
37	
28	

3. Simmetriya o‘qi shaklning qaysi burchaklari orqali o‘tmaydi?



4. Eng qisqa g‘altak ipning uzunligi necha metr?




5. Hisoblaymiz.

41 – 8 52 – 4 74 – 6 51 – 3

4-dars | 100 ichida sonlarni xonadan o‘tib ayirish usullari

1. Hisoblashni tushuntiramiz.



o‘nlik	birlik
2	3
–	9

o‘nlik	birlik
1 2	3 13
–	9
1	4

o‘nlik	birlik
1 2	3 13
–	9
1	4


1 o‘nlik 10 ta birlikka teng
10 birlik + 3 birlik = 13 birlik
13 birlik − 9 birlik = 4 birlik

23 − 9 = 14

2. Hisoblaymiz.

21	35	51	74	81	93
− 4	− 8	− 7	− 9	− 3	− 3

3. Rasmda nechta geometrik shakl bor? To‘g‘ri burchaklarni topamiz.



4. Ifoda tuzamiz va qiymatini topamiz.

Namuna:
26 + 3 − 4 = 25

	+3	−4
26		
61		


	+4	−3
56		
74		


5. Hisoblaymiz.

32 − 32	41 − 3	65 − 7	62 − 3	92 − 81

5-dars | 100 ichida sonlarni xonadan o‘tib ayirish usullari (takrorlash)

1. Hisoblaymiz.








2. Hisoblaymiz.

30 − * = 22	50 − * = 43	** − 20 = 70	5* − 3 = 49	7* − 9 = 62	** − 5 = 80

3. O‘chirg‘ichlar ruchkalardan nechta ko‘p? Lupa va ruchkalar o‘chirg‘ichlardan nechta ko‘p?


Nomi				**Jami**
Soni				




4. Hisoblaymiz.

20 − 4 21 − 21 47 − 5 60 − 8


5. Nuqtalarni birlashtirib ko‘pburchaklar yasaymiz.





6-dars | 100 ichida sonlarni xonadan o‘tib ayirish usullari

1. Hisoblashlarni tushuntiramiz.




50 − 27 = □

20 7


50 − 20 = □

□ − 7 = □




80 − 18 = □


2. Sharbat 2 xil meva-dan tayyorlanadi. Beril-gan mevalardan necha xil sharbat tayyorlash mumkin?




3. Shakllardagi qaysi nuqtalardan simmetriya o‘qini o‘tkazish mumkin?




4. Hisoblaymiz.






5. Chizma yordamida ifoda tuzamiz va qiymatini topamiz.



7-dars | 100 ichida sonlarni xonadan o‘tib ayirish usullari

1. Hisoblashni tushuntiramiz.




2. Hisoblaymiz.

40	50	60	60	80	90
− 27	− 44	− 37	− 42	− 51	− 64

3. Shakllarni rangi va o‘lchamiga ko‘ra ajratib, jadvalni to‘ldiramiz.


	Yashil	Qizil	Siyohrang	Jami
Katta				
Kichik				
Jami				



4. Nechta olma qoldi?

Bor edi	Olib ketildi	Qoldi
51 ta		? ta


5. Maktab bog‘iga necha tup nok ko‘chati o‘tqazildi?



$$\begin{array}{r} 40 \\ -\ \square \\ \hline \square \end{array}$$

8-dars | 100 ichida sonlarni xonadan o‘tib ayirish usullari

1. Hisoblashlarni tushuntiramiz.




31 − 12 = □

10 2

31 − 10 = □


□ − 2 = □




2. Namuna asosida davom ettiramiz.

32		48		72		83	
23	9	39			27	65	

3. Shakllarni burchaklari soniga ko‘ra ketma-ketlikda chizamiz.



4. Qaysi ifoda berilgan rasmga mos?



41 − 8

41 − 18

41 − 11

41 − 19


5. Namuna asosida ifodalar tuzamiz va qiymatini topamiz.

Namuna:
46 − 12 = 34

−12	
46	
31	
56	

+34	
23	
61	
37	

9-dars | 100 ichida sonlarni xonadan o‘tib ayirish usullari



1. Hisoblashni tushuntiramiz.

o‘nlik	birlik
4	1
− 1	6

o‘nlik	birlik	
3	4	1
− 1	6	

10

o‘nlik	birlik	
3	4	1
− 1	6	
	5	

10


o‘nlik	birlik	
3	4	1
− 1	6	
2	5	

10





2. Hisoblaymiz.


52	47	63	97	81	92
− 32	− 39	− 58	− 58	− 71	− 88




3. Rahim va Abdulla birgalikda savatga jami nechta joydan necha marta to‘p tushirishgan?








4. Tarozi pallalari teng bo‘lishi uchun yana nechta qizil sharcha kerak?









5. Hisoblaymiz.

31	42	42	58	73	89
− 27	− 33	− 41	− 49	− 18	− 49

10-dars | 100 ichida sonlarni xonadan o‘tib ayirish usullari

1. Rasm yordamida hisoblashni tushuntiramiz.







2. Ifodalar tuzamiz va qiymatini topamiz.

100 va 10 ning ayirmasi;
100 va 19 ning ayirmasi;
46 va 54 ning yig‘indisi;
65 va 19 ning yig‘indisi.

3. Shakllar qanday to‘plamlarga ajratilgan?




4. Stol yasash uchun 64 ta mix sarflangan bo‘lsa, stul uchun qancha mix sarflangan?



5. Hisoblaymiz.

100 − 41	100 − 77	81 + 19	85 + 13
100 − 55	100 − 100	67 + 33	91 + 9

11-dars | 100 ichida sonlarni xonadan o‘tib ayirish usullari




1. Hisoblashni tushuntiramiz.

yuzlik	o‘nlik	birlik
1	0	0
−	2	5

yuzlik	o‘nlik	birlik
	9	10
1	0	0
−	2	5
		5

yuzlik	o‘nlik	birlik
	9	10
1	0	0
−	2	5
	7	5




2. Hisoblaymiz.

100	100	100	100	100
− 42	− 51	− 60	− 65	− 100




3. Tarozidagi mevalar massasi teng bo‘lishi uchun qancha nok kerak?





4. O‘quv qurollarining soni nechtadan?





5. Namuna asosida hisoblaymiz.

Namuna:
34+26−39


+26	−39	−56	+28
34		97	

12-dars | 100 ichida sonlarni xonadan o‘tib ayirish usullari (takrorlash)


1. Yashirilgan sonlarni topamiz.

54 − 4□ = 9	48 − 2□ = □9	83 − 5□ = □6	98 − 8□ = □7	63 − 2□ = □6	81 − 6□ = □8

2. Ketma-ketlik asosida to‘ldiramiz.




3. Jami hayvonlar nechta?




4. Ayirmasi 30 va 40 ga teng bo‘lgan kamida 4 ta ifoda tuzamiz.

□ − □ = 30 □ − □ = 40

5. Hisoblaymiz.






13-dars | Ayirishga doir masalalar

1. Noma’lumlarni topamiz.


Bor edi	Sotildi	Qoldi
 96 ta	29 ta	? ta
? ta	29 ta	67 ta
96 ta	? ta	67 ta



2. Sonlar qatorini davom ettiramiz.




3. Hisoblaymiz va natijalarni taqqoslaymiz.



4. Bugun juma bo‘lsa, 2 kun oldin haftaning qaysi kuni bo‘ladi? 5 kun oldin-chi? Bugun seshanba bo‘lsa-chi?


5. Quyidagi mashinani yasagach, Asilbekda bo‘lgan 51 ta geometrik shakldan nechtasi qoldi?



14-dars | Qo‘shish va ayirishga doir masalalar

1. Ushbu ifodalar nimani bildiradi?


49 − 28 = □
28 + □ = 49
28 − □ = 7




2. Noma’lum kamayuvchi va ayriluvchilarni topamiz.

38 − □ = 17 □ − 28 = 51 74 − □ = 68
53 − □ = 24 □ − 42 = 41 □ − 71 = 12


3. Nechta quyonchaning massasi 2 ta jo‘jacha massasiga teng?




4. Qo‘l uzmasdan har birini bir urinishda chiza olasizmi?




5. Tulkilar yana necha qadamdan keyin uchrashadi?



15-dars | Qo‘shish amalining natijalarini tekshirish



1. Hisoblaymiz va natijalarni tekshiramiz.



23 + 31 = 54


54 − 23 = ☐

54 − 31 = ☐

47 + 22 = ?

☐ − 47 = 22

☐ − 22 = 47





2. Hisoblaymiz va natijalarni tekshiramiz.

32 + 21 64 + 31 42 + 57



3. Bo‘sh kataklarda qanday sonlar bo‘ladi? Nima uchun?





4. Taqqoslaymiz.

24 97

43 67 37

☐ > ☐ > ☐ > ☐ > ☐

☐ < ☐ < ☐ < ☐ < ☐



5. Hisoblaymiz va natijalarni tekshiramiz.

Namuna:
24 + 32 = 56
56 − 32 = 24

48 + 11
56 + 31

67 + 24
72 + 28


16-dars | Ayirish amalining natijalarini tekshirish

1. Hisoblaymiz va natijalarni tekshiramiz.

56 − 12 = 44

44 + 12 = ☐

12 + 44 = ☐



77 − 47 = ?


☐ + 47 = 77

☐ + ☐ = 77

2. Ayirmalarni topib, natijalarni tekshiramiz.

43 − 31 81 − 41 51 − 50 69 − 43

3. Bo‘sh kataklarda qanday sonlar bo‘ladi? Nima uchun?



4. Hunarmand ustaxonasida 84 ta cholg‘u asbobi bor edi. Ulardan 32 tasini sotdi va shogirdlari bilan yana 32 ta cholg‘u asbobi yasadi. Cholg‘u asboblari nechta bo‘ldi?




5. Hisoblaymiz va natijalarni tekshiramiz.


76 − 59 87 − 24 35 − 16 99 − 79

17-dars | Sonlar va shakllar ketma-ketligini mantiqiy davom ettirish


1. Sonlar qatorini davom ettiramiz.



2. Ketma-ketlik asosida ifodalarning qiymatini topamiz.




3. Keyingi shaklni topamiz va chizamiz.



4. Natijalarni taqqoslaymiz.

45 + 37 ☐ 50 + 10	52 − 29 ☐ 45 − 38
61 + 19 ☐ 72 − 12	68 − 59 ☐ 91 − 68

5. Chiziqchalar o‘rniga mos shakllarni chizamiz va bo‘yaymiz. Jami nechta shakl chizish lozim?



18-dars | Sonlar va shakllar ketma-ketligini mantiqiy davom ettirish (takrorlash)


1. Bo‘sh katakchalarga mos sonlarni yozamiz.


50 + 20	<	75		>	80 − 15
45 + 5	>			<	47 + 37

2. Bo‘sh katakchalar o‘rniga qanday shakl chizish kerak?




3. Samolyotda 84 ta o‘rindiq bor. 59 ta yo‘lovchi chiqqach, nechta bo‘sh o‘rindiq qoladi? Bo‘sh o‘rindiqlar soni yo‘lovchilar sonidan nechta kam?





4. Yana nimalar shar va kubga o‘xshaydi? Bir xil shakldagi narsalarni guruhlarga ajratamiz.



5. Hisoblaymiz.


34	77	48	95	68	91
+ 23	− 61	+ 27	− 49	+ 26	− 52
———	———	———	———	———	———

3-BOB | GEOMETRIK SHAKLLAR




1-dars | Yassi geometrik shakllar

1. Shakllar nomlarini eslaymiz va aytamiz.



Bunday shakllar yana nimalarga o‘xshaydi? Ularni yana qayerlarda uchratgansiz?


2. Namunadagidek bajaramiz.




65 + 8 = ☐ 72 + 8 = ☐


86 + 9 = ☐ 68 + 7 = ☐

3. Sanash va qirqish orqali shakllarda nechta uchburchak va kvadrat borligini topamiz.






4. Shakllarni nomlang. Ular qanday guruhlarga ajratilgan?




5. Shakllarni chizamiz. Yana qanday simmetriya o‘qlarini o‘tkazish mumkin?




2-dars | Yassi geometrik shakllar


1. Qaysi shakllardan foydalanilgan? Nomlarini aytamiz.




2. Shakllarning uchlari, tomonlari nechtadan?



3. Hisoblaymiz.




+




+

4. To‘g‘ri chiziqlarni sanaymiz va chizamiz.




5. Namunadagidek bajaramiz.

90 − □ = 40




80 − □ = □




3-dars | Sodda geometrik shakllardan murakkab shakllar hosil qilish


1. Hayvonchalar qanday shakllardan hosil bo‘lgan?



2. Naqshlar qanday shakllardan hosil bo‘lgan? Ularni qayerlarda uchratgansiz?




3. Hisoblaymiz.



4. Birinchi rasmda 4 sonining ko‘zguda ko‘rinishi aks etgan. Ko‘zgularning aynan shu holatida 5 soni qanday ko‘rinishda bo‘ladi?




5. Kattalar yordamida rangli qog‘ozlardan shakllar yasaymiz.




4-dars | Sodda geometrik shakllardan murakkab shakllar hosil qilish

1. Shakllar qanday hosil bo‘lganini tushuntiramiz.



2. Kim chaqqon? Har bir shaklning nomini aytamiz.




3. Hisoblaymiz.

+	24	38	45	27
19				

−	13	16	22	31
79				


4. Rasm asosida jadvalni to‘ldiramiz.

Ranglar	Kvadratlar soni
Ko‘k	?
Sariq	?
Qizil	?
Siyohrang	18
Jami	




5. Sonlarni o‘sish va kamayish tartibida yozamiz.





6. Qanday shakllardan foydalanilgan? Shakllarni chizamiz va bo‘yaymiz.




5-dars | Kvadrat va to‘g‘ri to‘rtburchak

1.



Kvadratning hamma tomonlari teng.




To‘g‘ri to‘rtburchakning qarama-qarshi tomonlari teng.






Shakllarning qaysi biri to‘g‘ri to‘rtburchak?




2. Birinchisi 7 cm, ikkinchisi undan 2 cm qisqa, uchinchisi birinchisidan 2 cm uzun bo‘lgan kesmalar chizamiz.

3. Amirxonning chorva dalasida jami nechta qo‘y va echkilar bor?




4. Shakllarning tomonlari uzunliklarini taqqoslaymiz.



5. Kvadrat va to‘g‘ri to‘rtburchak chizamiz. Kvadratni ko‘k, to‘g‘ri to‘rtburchakni yashil rangga bo‘yaymiz.

6-dars | Kvadrat va to‘g‘ri to‘rtburchak

1. Shakllarning tomonlari uzunliklarini o‘lchaymiz.




2.




To‘g‘ri to‘rtburchakning tomonlari uning bo‘yi va eni deb nomlanadi.




3. Shakllarning tomonlari uzunliklari yig‘indisini topamiz.



4. Rasm asosida ifoda tuzib, hisoblaymiz.




5. Shakllarni chizamiz. Nechtadan uchburchak bor?



7-dars | Kvadrat va to‘g‘ri to‘rtburchak perimetri


1. 

To‘g‘ri to‘rtburchakning perimetri uning barcha tomonlari uzunliklari yig‘indisiga teng.




5 cm + 17 cm + 5 cm + 17 cm = 44 cm

Xuddi shunday usulda kvadratning perimetrini topamiz:




2 cm + 2 cm + 2 cm + 2 cm = 8 cm

2. Shakllarning perimetrlari nimaga teng?





6 + 6 + 2 + 2 = ☐ cm



3 + 3 + 3 + 3 = ☐ cm

3. Shakllarning perimetri nechta qalam uzunligiga teng?





4. Hisoblamasdan taqqoslaymiz.


76 + 4 ☐ 76 + 2


4 + 5 ☐ 9 − 2

56 − 6 ☐ 56 + 6

90 + 9 ☐ 99 − 6


5. Shakllarning perimetrini hisoblaymiz.





8-dars | Ko‘pburchak va uning perimetri


1. Eslaymiz. Shakllarning qaysi biri ko‘pburchak emas?



2.





Ko‘pburchakning perimetri uning barcha tomonlari uzunliklari yig‘indisiga teng.




2 cm + 3 cm + 3 cm + 2 cm + 3 cm + 3 cm = 16 cm

3. Ko‘pburchaklar perimetri nimaga teng?









4. Qaysi biri simmetrik?



5. Namuna asosida hisoblaymiz.




6. Ko‘pburchaklarni chizamiz va perimetrini hisoblaymiz.




9-dars | Ko‘pburchak va uning perimetri

1. Shakllarning perimetri nimaga teng?



2. Rasm asosida jadvalni to‘ldiramiz.

Ranglar	Kataklar soni
Yashil	16
Qizil	?
Siyohrang	?
Sariq	?
Jami:	



3. Bo‘yi 20 metr, eni 30 metr bo‘lgan yer maydonini o‘rash uchun necha metr devor qurish kerak?

4. Namunadagidek hisoblaymiz.


$$\begin{array}{r} {\scriptstyle ①}47 \\ +\ 5 \\ \hline 52 \end{array}$$


$$\begin{array}{r} 64 \\ +\ 8 \\ \hline \square \end{array} \qquad \begin{array}{r} 45 \\ +\ 5 \\ \hline \square \end{array} \qquad \begin{array}{r} 59 \\ +\ 4 \\ \hline \square \end{array} \qquad \begin{array}{r} 78 \\ +\ 3 \\ \hline \square \end{array} \qquad \begin{array}{r} 48 \\ +\ 8 \\ \hline \square \end{array}$$

5. To‘g‘ri to‘rtburchakning eni 14 cm, bo‘yi 6 cm. Uning perimetri necha santimetr?


10-dars | Ko‘pburchak va uning perimetri

1. Shakllarning perimetrini topamiz va taqqoslaymiz.






2. Ikkinchi shaklning perimetri nimaga teng?




2+2+2+2=8





4 + □ + □ + □ = □□

3. Chizma asosida masala tuzamiz va yechamiz.



4. Shakllarning perimetrlarini taqqoslaymiz.






11-dars | Fazoviy geometrik shakllar

1.




Bu – silindr.






Yana nimalar silindrga o‘xshaydi?

2. Silindr qanday yasalishini bilasizmi?







3. Berilgan jadval asosida shakllar chizamiz va perimetrini hisoblaymiz.

Bo‘yi	10 cm	6 cm	4 cm
Eni	6 cm	8 cm	10 cm

4. Hisoblaymiz.

16	14	23	65	67	96
+ 12	+ 23	+ 37	− 32	− 20	− 14


5. Silindrlar o‘rnida qaysi son yashiringan?


48 + ▭ = 49 ▭ + 4 = 76

80 − ▭ = 70 70 + ▭ = 75

12-dars Fazoviy geometrik shakllar


1. Bu − konus.






Yana nimalar konusga o‘xshaydi?


2. Konus qanday yasalishini bilasizmi?









3. Ko‘pburchaklar perimetrini hisoblaymiz.









4. Mevalar jami necha kilogramm?

Olma – 23 kg
Nok – 32 kg
} ?





5. Hisoblaymiz.

24 + 6 + 18


19 + 11 − 18

51 + 11 + 8

55 + 5 − 13


13-dars | Sodda fazoviy geometrik shakllar

1. Narsalar qaysi geometrik shakllarga o‘xshaydi? Ulardan qayerda foydalaniladi?





2. Tanish shakllarni topamiz.






3. Ko‘pburchaklar perimetrini hisoblaymiz.






4. Narsalarning soyasi qaysi?




1 2 3 4 5 6

5. Shakllarning tomonlari va uchlari sonini yozamiz.




Tomoni – 3
Uchi – 3


Tomoni – ☐
Uchi – ☐




Tomoni – ☐
Uchi – ☐




Tomoni – ☐
Uchi – ☐



Tomoni – ☐
Uchi – ☐



Tomoni – ☐
Uchi – ☐



4-BOB | SONLARNI KO‘PAYTIRISH



1-dars | Bir nechta teng (bir xil) qo‘shiluvchilar yig‘indisi


1. Jami nechta koptok bor?




Har bir guruhda 2 tadan koptok. **3 ta guruhda** jami 6 ta koptok bor.

3 ta 2 talik = 6

2 + 2 + 2 = 6



2. Jami nechta gilos bor?



☐ ta guruhning har birida ☐ tadan gilos bor.


☐ + ☐ + ☐ + ☐ = ?

Demak, 4 ta 3 talik guruhda 12 dona gilos bor.


3. Jami nechta shilliqqurt bor? Ularning sonini:

1) 3 talab sanab topamiz;


2) qo‘shish amali yordamida topamiz.



4. Uchinchi kuni ekilgan gul ko‘chatlari nechta?




5. Namunadagidek ifodalar tuzamiz:




2 + 2 + 2

□ ta 2 talik = □



□ + □ + □ + □

□ ta □ talik = □




□ + □ + □ + □ + □


□ ta □ talik = □

2-dars | Bir nechta teng (bir xil) qo‘shiluvchilar yig‘indisi

1. Bo‘sh kataklarni to‘ldiramiz.




□ ta 2 talik guruh



□ ta □ talik guruh

2. Teng guruhlarda jami nechta lego bor?

4 + 4 = 8





2 ta 4 talik guruh = 8

4 ta 2 talik guruh — 2 + 2 + 2 + 2 = □


5 ta 4 talik guruh — □ + □ + □ + □ + □ = □

3. Har bir guruhda nechtadan sharcha bo‘ladi? Jami-chi?






4. Har kuni 2 tadan sotib olinsa, bir haftada nechta non olib kelinadi?




5. Bir xil qo‘shiluvchilar yig‘indisi shaklida yozamiz.



3-dars | Ko‘paytirish amali va uning ma’nosi

1. 4 ta guruh. Har bir guruhda 5 tadan shirinlik.



4 ta 5 talik guruh

5 + 5 + 5 + 5 = ?

5 + 5 + 5 + 5 = 20 ni qisqa ko‘rinishda quyidagicha yozamiz:

4 × 5 = 20


× – ko‘paytirish amalining belgisi

1-ko‘paytuvchi | 2-ko‘paytuvchi | ko‘paytma


O‘qilishi: 4 bilan 5 ning ko‘paytmasi 20 ga teng.

Jami 20 ta shirinlik.

2. Ifodalar tuzamiz.





□ × 6 = ?



□ × □ = □

3. Rasmga mos ifodani topamiz va yozamiz.







7 × 3	3 × 8	3 × 7	8 × 2

6 × 4	3 × 6	3 × 4	6 × 3

4. Mevalar sonini ko‘paytirish amali yordamida ifodalaymiz.




□ × □ = □



□ × □ = □


4-dars | Ko‘paytirish amali va uning ma’nosi

1. Yodda tutamiz!



4 ta 2 talik guruh

4 × 2 = □




2 ta 4 talik guruh

2 × 4 = □

Ko‘paytuvchilarning o‘rnini almashtirgan bilan ko‘paytma o‘zgarmaydi.




2. Guruhlar asosida bo‘sh kataklarni to‘ldiramiz.



□ ta □ talik


□ × □ = □




□ ta □ talik

□ × □ = □

3. Koptoklar soni nechta?



3 × □ = □




□ × 3 = □

4. Hisoblaymiz.


23 + 45	81 − 17	64 − 25	90 − 44	75 + 14

5. Guruhlarga ajratamiz va bo‘sh kataklarni to‘ldiramiz.




2 ta 3 talik

2 × 3 = 6




□ ta □ talik

□ × □ = □



□ ta □ talik

□ × □ = □




□ ta □ talik


□ × □ = □

5-dars | 2 sonini bir xonali songa ko‘paytirish

1. Ikkitalab sanaymiz va ko‘paytiramiz.



2. Qaysi javob to‘g‘ri?



3. Bo‘sh kataklarni to‘ldiramiz.



4 × 2 = 8 5 × ☐ = 10 3 × ☐ = 9 2 × ☐ = 6

4. Ko‘paytuvchilarning o‘rnini almashtirib, hisoblaymiz.


2 × 1 = 2 1 × 2 = 2	2 × 3 ☐ × ☐	2 × 5 ☐ × ☐	2 × 9 ☐ × ☐

5. Jadvalni to‘ldiramiz.

2 ×	2	6	9	3	7	5	8	4

6-dars | 2 sonini bir xonali songa ko‘paytirish


1. Hisoblashlarni tushuntiramiz.




2. Tushirib qoldirilgan sonlarni aytamiz.

20, 22, □, □, □, 30, 32.

3. Guruhlab hisoblaymiz. Jami nechta kartoshka bor?



2 × 3 = □



3 × 2 = □

4. Xokkey o‘yini 6:6 hisob bilan yakunlandi. Shayba darvozalarga jami necha marta kiritilgan?



5. Ko‘paytmalarni topamiz.


2 × 1	2 × 3	2 × 6	2 × 7	2 × 8
1 × 2	3 × 2	6 × 2	7 × 2	8 × 2

7-dars | 3, 4 sonlarini bir xonali songa ko‘paytirish


1. Hisoblashlarni tushuntiramiz.



3 × 5 = □




4 × 4 = □



4 + 4 + 4

3 × 4 = □



3 + 3 + 3 + 3

4 × 3 = □

2. Hisoblaymiz. Kim chaqqon?

3 + 3 → 2 × 3

3 + 3 + 3 → □ × □

3 + 3 + 3 + 3 → □ × □

4 + 4 → 2 × 4


4 + 4 + 4 → □ × □


4 + 4 + 4 + 4 → □ × □


3. Jami konfetlar nechta?




4. Mashina massasi nechta koptokcha massasiga teng?








5. Ifodalar tuzamiz va qiymatlarini topamiz.




□ × □ = □



□ × □ = □


8-dars | 5, 6 sonlarini bir xonali songa ko‘paytirish

1. Hisoblashlarni tushuntiramiz.



4 + 4 + 4 + 4 + 4 = □

5 × 4 = □



3 + 3 + 3 + 3 + 3 + 3 = □

6 × 3 = □

2. 4 ta kemaning har birida 6 tadan yo‘lovchi va 3 tadan ekipaj a’zosi bor. Kemalarda jami necha nafar kishi bor?

3. Hisoblaymiz. Kim chaqqon?

5 + 5 → □ × □

5 + 5 + 5 → □ × □

5 + 5 + 5 + 5 → □ × □


6 + 6 → □ × □

6 + 6 + 6 → □ × □


6 + 6 + 6 + 6 → □ × □

4. Bo‘sh joylarni to‘ldiramiz.

5 × 6 = ?









6 × 5 = ?


5. Ifoda tuzamiz va qiymatini topamiz.



□ × □ = □




□ × □ = □



□ × □ = □


9-dars | 7, 8 sonlarini bir xonali songa ko‘paytirish

1. Hisoblashlarni tushuntiramiz.



4 + 4 + 4 + 4 + 4 + 4 + 4 = ☐

7 × 4 = ☐



3 + 3 + 3 + 3 + 3 + 3 + 3 + 3 = ☐

8 × 3 = ☐

2. Hisoblaymiz. Kim chaqqon?


7 + 7 + 7 ⟶ ☐ × ☐

7 + 7 + 7 + 7 ⟶ ☐ × ☐


8 + 8 + 8 ⟶ ☐ × ☐

8 + 8 + 8 + 8 ⟶ ☐ × ☐

3. Bo‘yalgan katakchalar sonini ko‘paytirish amali yordamida topamiz.



☐ × ☐ = ☐




☐ × ☐ = ☐

4. Velosipedlarda jami nechta g‘ildirak bor?




5. Har bir rasmga mos ifodaning qiymatini topamiz.



a) 3 × 4

b) 3 × 2



a) 6 × 3

b) 3 × 5




a) 4 × 3

b) 2 × 3


10-dars | 9 sonini bir xonali songa ko‘paytirish

1. Hisoblashlarni tushuntiramiz.




3+3+3+3+3+3+3+3+3=□


9 × 3 = □



9 × 5 = □


2. Model asosida ifodalar tuzamiz va qiymatini topamiz.






3. 2 ta bidonda 26 litrdan sut bor edi. Har biridan 9 litrdan sut ishlatildi. Jami necha litr sut qoldi?


4. Kim tez hisoblaydi?



□ × □ = □




□ × □ = □



□ × □ = □

5. Namuna asosida ifodalar tuzamiz.

Namuna: 1 × 9 = 9




11-dars | 1 sonini bir xonali songa ko‘paytirish

1. Hisoblashlar qanday bajarilgan?




1×1=1 1×2=2 1×3=3 3×1=3


2. Rasm asosida ifoda tuzib, hisoblaymiz.



3. Namunalar asosida ko‘paytmalarni topamiz.



4. Shakllarning perimetrini topamiz va taqqoslaymiz.



5. Jadvalni to‘ldiramiz.


1 ×	1	2	3	4	5	6	7	8	9
	1								

12-dars | 0 sonini bir xonali songa ko‘paytirish

1. Hisoblashni tushuntiramiz.



$3 \times 0 = 0$




$0 \times 3 = 0$

Qanday xulosaga keldingiz?

2. Hisoblaymiz.

1×0	3×0	5×0	7×0	9×0
2×0	4×0	6×0	8×0	10×0


3. Kim tezroq hisoblaydi?





4. Quyonchaning sakrash uzunligi 2 m. U biror marta ham sakramasa, turgan joyidan necha metr siljiydi?





5. Kesmalar uzunligini taqqoslaymiz. Qaysi biri uzunroq?




6. Hisoblaymiz.

3×1	3×0	4×1	4×0	6×1	6×0

13-dars | 10 sonini bir xonali songa ko‘paytirish

1. Hisoblashlarni tushuntiramiz.



4 × 10 = 40

10	10	10	10


10 + 10 + 10 + 10 = 40




2. Mos ko‘paytmani yozamiz.



10 + 10 + 10 = ?




3. Sonlar nuri yordamida yig‘indini ko‘paytmada ifodalaymiz.




10 × □ = □

□ + □ + □ + □ + □ + □ + □ + □ + □ + □ = □


4. Qaysi kesma uzun?



5. Bo‘sh kataklarni to‘ldiramiz.




□ × □ = 20



□ × □ = □

14-dars | Bir xonali sonlarning ko‘paytirish jadvali

1. Ko‘paytirishlarni jadvalda takrorlaymiz.




2. Ko‘paytmalarni taqqoslaymiz.

$2 \times 9 \square 2 \times 8$ $\quad$ $6 \times 4 \square 9 \times 4$


$5 \times 1 \square 1 \times 5$ $\quad$ $7 \times 0 \square 0 \times 10$

3. Bo‘sh qutining massasi 3 kg. Uning ichiga 12 kg olma va 2 kg nok joylandi. Quti bilan birga mevalarning massasi qancha?


4. Bo‘yalgan katakchalar sonini topamiz.




$4 \times \square = 12$



$\square \times \square = \square$



$\square \times \square = \square$




$\square \times \square = \square$

15-dars | Bir xonali sonlarning ko‘paytirish jadvali




1. Kim tez hisoblaydi?





2. Natijalar qanday hosil bo‘ldi?






3. Gilamning perimetrini topamiz.




Uzunligi	Eni	Perimetri
10 m	5 m	?



4. To‘g‘ri tenglik hosil qilish uchun amal belgilarini qo‘yamiz.

4 ☐ 4 ☐ 3 = 16 | 2 ☐ 2 ☐ 4 = 8 | 2 ☐ 2 ☐ 4= 16

7 ☐ 6 ☐ 11 = 12 | 4 ☐ 3 ☐ 3 = 13 | 10 ☐ 3 ☐ 5 = 35





5. Bo‘sh kataklarni to‘ldiramiz.

×	1	4	8
5		20	
6	6		

×	5	6	10
9			
10		60	

16-dars | Ko‘paytirishga doir masalalar

1. Yosh futbolchilar maktabiga nechta koptok berildi?

Har bir qopda	Berildi	Jami
		 – ? ta

2. Hisoblaymiz.

2 × 5 − 10	7 × 4 + 12	6 × 9 − 38
9 × 5 + 45	5 × 8 − 9	7 × 10 − 57

3. Ikkala traktorga necha o‘ram somon yuklangan?



3 o‘ram



?, 3 marta ko‘p

?

4. Natijalarni taqqoslaymiz.


3 × 5 = ☐	3 × ☐ = ☐	3 × ☐ = ☐
3 × 6 = 18	3 × 9 = 27	3 × 3 = 9
3 × 7 = ☐	3 × ☐ = ☐	3 × ☐ = ☐


5. Hisoblaymiz.

6 × 5 − 18	4 × 3 − 8
5 × 4 − 20	8 × 4 − 26

17-dars | Ko‘paytirishga doir masalalar

1. Har bir guruhda nechtadan meva bor?





□ + □ + □ = □

6 × 3 = □

□ + □ = □

□ × □ = □

2. Avtodo‘kon sotuvga birinchi kuni 10 ta, ikkinchi kuni undan 2 marta ko‘p yengil mashina jo‘natdi. Avtodo‘kon 2 kunda sotuvga nechta yengil mashina jo‘natdi?

3. Natijalar qanday hosil bo‘ldi?

6 × 10 = □	2 × 10 = □	9 × 10 = □
3 × 10 = □	6 × 10 = □	1 × 10 = □
9 × 10 = □	8 × 10 = □	10 × 10 = □

4. Birinchi son ikkinchisidan nechta ortiq yoki kam?

16 va 12 67 va 98 87 va 93 75 va 25

5. Guruhlarda pishiriqlar soni nechta? Taqqoslaymiz.




6. Hisoblaymiz. Natijalar nima uchun teng?

5 × 4 4 × 5	6 × 7 □ × □	5 × 8 □ × □	9 × 3 □ × □

18-dars | Ko‘paytirishga doir masalalar (takrorlash)

1. Namuna asosida hisoblaymiz.

$7 + 7 + 4 + 7 = 3 \times 7 + 4 = 21 + 4 = 25$



2. Natijalarni taqqoslaymiz.

$2 + 9 \square 3 \times 6 - 5$ $\quad 1 + 8 \square 2 \times 8 - 7$ $\quad 3 + 8 \square 3 \times 5 - 4$

3. 1 kg undan 4 dona patir non yopilsa, 7 kg undan necha dona patir non yopiladi?

4. Namunadagidek bajaramiz va taqqoslaymiz.


$7 \times 3 \square 3 \times 7$

$7 \times 3 = 7 + 7 + 7 = \square$

$3 \times 7 = 3 + 3 + 3 + 3 + 3 + 3 + 3 = \square$


$5 \times 4 \square 4 \times 5$ $\quad 8 \times 4 \square 4 \times 8$

5. Qutilar soni nechta? Jami tuxumlar soni-chi?



$\square \times \square = \square$

5-BOB | SONLARNI BO‘LISH



1-dars | Teng guruhlarga bo‘lish

1.




O‘yinchoqlarni teng taqsimlaymiz va modelda ko‘rsatamiz:



O‘yinchoqlar nechta guruhga ajratildi? Har bir guruhdagi o‘yinchoqlar soni tengmi? Ularning sonini sanaymiz.




2. 16 ta kitobni 2 tadan ajratsak, nechta sinfga tarqatish mumkin? Chizma asosida hisoblaymiz.



16 – 2 – □ – □ – □ – □ – □ – □ – □ = 0



3. Shirinliklar nechta teng guruhga bo‘lingan?




4. Stullarni sanaymiz va teng guruhlarga ajratamiz.



Nechta guruh bo‘ldi? Har bir guruhda nechtadan stul bor?

5. Olmalarni sanaymiz va ularni idishlarga teng bo‘lib joylashtiramiz. Olmalar nechta guruhga ajratildi?




2-dars | Teng guruhlarga bo‘lish

1.




18 ta sabzini 3 tadan qilib teng guruhlarga ajratamiz. Nechta guruh hosil bo‘ldi?






Sabzilarni uchta guruhga ajratsak, har bir guruhda nechtadan sabzi bo‘ladi? 2 tadan qilib ajratsak-chi?





2. Kvadratlarni beshtadan qilib guruhlarga ajratamiz va yozamiz.




20 − □ − □ − □ − □ = 0


3. “?” belgisi o‘rnida qaysi shakl bo‘lishi kerak?






4. 2 ta savatda jami 18 ta olma bor. Agar 1-savatda 6 ta olma bo‘lsa, 2-savatda nechta olma bor?






5. O‘rdaklarni to‘rtta guruhga ajratsak, nechtadan bo‘ladi? Sakkizta guruhga ajratsak-chi?




3-dars | Sonlarni bo‘lish

1. Qulupnaylarni ikkita teng guruhga ajratamiz.




Har bir guruhdagi qulupnaylar soni tengmi? Ularning sonini sanaymiz va quyidagicha yozamiz: **8 ÷ 2 = 4**

O‘qilishi: sakkiz bilan ikkining bo‘linmasi 4 ga teng.



2. Doirachalar nechta? Nechta guruhga ajratilgan? Har bir guruhda nechtadan doiracha bor?




18 ÷ 3 = ?

3. Toq sonlarni o‘sib borish tartibida, juft sonlarni kamayib borish tartibida guruhlarga ajratamiz.


27	3	8	15	23	12	11	6
9	26	21	28	30	17	24	18

4. Jami mevalar soni nechta? Ular idishlarda nechtadan joylashtirilgan?



□ ÷ □ = □

5. Narsalarni 4 ta teng guruhga ajratamiz va ifodalaymiz.




4-dars | Sonlarni bo‘lish

1. Mashinalarni teng guruhlarga ajratamiz va ifodalaymiz.




□ ÷ □ = □

2. Mevalar nechta guruhga ajratilgan? Ayirish va bo‘lish bilan ifodalaymiz.



□ ÷ □ = ? □ − □ − □ − □ = 0


3. Bo‘sh joylarga qanday shakllar mos keladi?



4. Bo‘sh kataklarga mos sonlarni topib yozamiz.



5. Doirachalarni teng guruhlarga ajratamiz. Ularni bo‘lish bilan ifodalaymiz.




□ ÷ □ = □

5-dars | Sonni 2 ga bo‘lish

1. 12 ta daftarni 2 tadan qilib nechta o‘quvchiga tarqatish mumkin?

12 ÷ __ = __



2+2+2+2+2+2=12

12 ÷ 2 =

12 − 2 = 6 − 2 =
10 − 2 = 4 − 2 =
8 − 2 = 2 − 2 =

2. 1) 8 ta olmani 2 guruhga bo‘lamiz. Har bir guruhdagi olmalar soni nechta?



8 ÷ 2 = ?

2) 10 ta nokni 2 tadan qilib guruhlarga bo‘lsak, nechta guruh hosil bo‘ladi?



10 ÷ 2 = ?

3. Hisoblaymiz.


4 ÷ 2 6 ÷ 2 14 ÷ 2 18 ÷ 2

4. Bo‘sh kataklarni to‘ldiramiz.

× 2 =	8	10	2	4	6	7	9	3	1	5
	16									

÷ 2 =	16	12	40	36	28	32	8	24	4	20
	8					16			9	

5. Konfetlar qanday taqsimlanadi? Bo‘lish amalida ifodalaymiz.



□ ÷ □ = ?

6-dars | Sonni 2 ga bo‘lish


1.



$5 \times 2 = 10$ – jami daraxtlar soni.
$10 \div 2 = 5$ – har bir qatordagi daraxtlar soni.



2. Har bir qatordagi doirachalarni ikki guruhga bo‘lamiz.



2 ÷ 2	12 ÷ 2
4 ÷ 2	14 ÷ 2
6 ÷ 2	16 ÷ 2
8 ÷ 2	18 ÷ 2
10 ÷ 2	20 ÷ 2


3. Rasm asosida tushuntiramiz: sonlar nimani bildiradi? Hisoblab, natijani topamiz.

1 + 1 + 1 + 1

4 + 4

4 × 2

2 + 2 + 2 + 2




4. Tushirib qoldirilgan sonlarni topamiz.

2	4			10	12		16		20

5. Hisoblaymiz.

2 ÷ 2	14 ÷ 2	16 ÷ 2
6 ÷ 2	10 ÷ 2	20 ÷ 2


6. Shakllarning bo‘laklarini ikkitadan qilib guruhlarga ajratamiz va har bir guruhni turli ranglarda bo‘yaymiz.



7-dars | Sonni 3 ga bo‘lish


1. 18 ta tugmani nechta kiyimga 3 tadan qadash mumkin?

18 − 3 − 3 − 3 − 3 − 3 − 3 = 0



18 ÷ 3 = 6

2. Namunadagidek bajaramiz.



3 + 3 + 3 = 9

3 × 3 = ☐

9 ÷ 3 = ☐

□ + □ + □ + □ + □ = □□

□ × □ = □□

□ ÷ □ = □□



3. Bo‘sh joylarni to‘ldiramiz.

30	27	24	?	?	15	?	?	6	?

4. To‘g‘ri javoblarni topamiz va yozamiz.

3	→	÷3	→	2		18		÷3	10
6				5		21			9
9				1		24			6
12				4		27			7
15				3		30			8



5. Hisoblaymiz.


6 ÷ □ = 2 | 3 ÷ □ = 1 | 9 ÷ □ = 3 | □ ÷ 3 = 2

□ ÷ 2 = 5 | 4 ÷ 2 = □ | □ ÷ 2 = 4 | 8 ÷ □ = 4


8-dars | Sonni 4 ga bo‘lish

1. Chizma asosida hisoblaymiz.


4 × 3 = 12




12 ÷ 4 = 3



2. Natijalarni taqqoslaymiz.



4 marta orttiramiz



2 marta orttiramiz

3. To‘g‘ri javoblarni topamiz va yozamiz.

40	÷4	6
24		3
36		2
8		9
12		10



4	÷4	4
16		7
28		1
20		5
32		8

4. Rasmdan foydalanib hisoblaymiz.



$4 + 4$ $\quad 2 \times 4$ $\quad 4 \times 2$

$8 - 4$ $\quad 8 \div 4$ $\quad 8 \div 2$

5. Chumolilar guruhi 28 ta bug‘doy boshog‘ini teng miqdorda to‘plashdi. Ular 4 ta guruh bo‘lib ishlagan bo‘lsa, har bir guruh nechtadan boshoq to‘plagan?



6. 3 ga va 4 ga bo‘linadigan sonlarni topamiz va ajratib yozamiz.



9-dars | Sonni 5 ga bo‘lish

1. Jami muzqaymoqlar nechta? Har bir idishda nechtadan muzqaymoq bor?



8 + 8 + 8 + 8 + 8 = ☐☐ 5 × 8 = ☐☐ ☐☐ ÷ 5 = ☐

2. 35 nafar askar 5 qatordan bo‘lib saflandi. Har bir qatorga necha nafardan askar joylashgan?

3. Ketma-ketlik qanday ortib boryapti?

11	13	16	20	25	?	?	46	?	65

4. Guldastalar soni nechtadan?

Gullar nomi	Olib kelindi	Gullar soni (1 ta guldastada)	Guldastalar soni
Lola	45	5	?
Chinnigul	30	5	?
Atirgul	24	3	?




5. Hisoblaymiz.

2 × 5	4 × 5	7 × 5
10 ÷ 2	20 ÷ 5	35 ÷ 5


10-dars | Sonni 6 ga bo‘lish

1. Bo‘lish qanday bajarilgan?



20 ÷ 5 = ?

20 ÷ 4 = ?




24 ÷ 6 = ?

24 ÷ 4 = ?


2. Kim tez hisoblaydi?

5 marta kamaytiramiz	5	10	15	20	25	30	35	40	45	50
6 marta kamaytiramiz	6	12	18	24	30	36	42	48	54	60


3. Olmaxon archa daraxtigacha bo‘lgan 6 metr masofaga 3 marta sakradi. U keyingi daraxtgacha yana necha marta sakrashi kerak?



4. Hisoblaymiz.




5. Qaysi ko‘pburchak tushirib qoldirilgan? Shakllarni chizamiz.



11-dars | Sonni 7 ga bo‘lish

1. Rasmga qarab, bo‘lishni tushuntiramiz.



7 ÷ 7 = ?

14 ÷ 7 = ?


21 ÷ 7 = ?


2. Hisoblaymiz.

70			2			35			9
28			6			63			3
42	÷7		4			21	÷7		5
49			7			7			8
14			10			56			1



3. Uch xil rangdan ikkitasini tanlashning nechta yo‘li bor? Chizmadagi har bir kesma nimani anglatadi?





4. Rasm asosida ifodalarning qiymatini topamiz.



7 x 5 = ?

35 ÷ 5 = ?


35 ÷ 7 = ?


5. Hisoblaymiz.

14 ÷ 2	28 ÷ 4	60 ÷ 6	28 ÷ 7	56 ÷ 7
21 ÷ 7	7 ÷ 7	12 ÷ 3	18 ÷ 3	70 ÷ 7

12-dars | Sonni 8 ga bo‘lish


1. Har bir savatda nechtadan koptok bor? Savatdan tashqarida-chi?





8 × 5 = ? 40 ÷ 8 = ? □ ÷ □ = □

2. Hisoblashlarni tushuntiramiz.



8 ÷ 8 = ?

16 ÷ 8 = ?

24 ÷ 8 = ?

3. Hisoblaymiz va mos holda kataklarni bo‘yaymiz.



2 × 3 3 × 2 6 ÷ 2 8 ÷ 2

4. Hisoblaymiz.

56 —÷7→ ... —+56→ ... —÷8→ ... —+7→ ... —−8→ ... —×7→ ... —+7→ ...


5. Jadvalni to‘ldiramiz.

× 8	6	2	8	4	7	3	1	5	9	10
	48				56				72	

÷ 8	64	16	48	32	56	80	24	40	72	8
	8				7				9	

13-dars | Sonni 9 ga bo‘lish

1. Hisoblashlar qanday bajariladi?




9 ÷ 9 = ?

18 ÷ 9 = ?

27 ÷ 9 = ?

2. Hisoblaymiz.

90 ÷ 9 = ?



90 − 10 − □ − □ − □ − □ − □ − □ − □ − □ = 0

3. Eng katta ikki xonali son bilan eng kichik ikki xonali sonning ayirmasi nechaga teng?

4. Qaysi sonlar 9 ga bo‘linadi? Qaysilari bo‘linmaydi?



5. O‘rmonchilar 90 ta ko‘chatni 9 ta qatorga ekishgan bo‘lsa, har bir qatorga nechtadan daraxt ekilgan?

6. Jadvalni to‘ldiramiz.

× 9	10	5	6	8	4	2	1	7	3	9
	90									81

÷ 9	54	18	81	36	63	27	45	90	9	72
	6				7			10		

14-dars | Sonni 10 ga bo‘lish

1. Namuna asosida sonlarni 1 ga va 10 ga bo‘lishni tushuntiramiz va natijalarni yozamiz.


5 ÷ 1 8 ÷ 1 9 ÷ 9	÷1 5 ? ×1

10 ÷ 10 30 ÷ 10 50 ÷ 10	÷10 50 ? ×10

2. Hisoblaymiz.


52 ÷ 52	24 ÷ 24	94 ÷ 1	70 ÷ 10
40 ÷ 10	50 ÷ 10	90 ÷ 10	56 ÷ 1

3. To‘g‘ri, o‘tkir va o‘tmas burchaklarni topamiz.



4. O‘yinchoqlar to‘plamida jami nechta detal mavjud?

Katta detallar – 10 ta
O‘rtachasi – ?, 5 marta ko‘p
Kichiklari – ?, 10 ta ko‘p




5. Hisoblaymiz.

34 + 66	65 + 35	59 − 26	59 − 19	50 − 10

15-dars | Sonni 10 ga bo‘lish

1. Rasmdan foydalanib bo‘sh kataklarni to‘ldiramiz.



$3 \times \square\square = 30$

$30 \div \square\square = 3$

$30 \div \square = 10$

2. Yodda tutamiz!



Sonni 0 ga bo‘lish mumkin emas!


~~$2 \div 0$~~

3. 60 dona mevani 10 ta qutiga nechtadan joylash mumkin?

4. Qaysi sonlar 10 ga bo‘linadi? Qaysilari bo‘linmaydi?



5. Ikkita kesma chizib, kvadratni 8 ta bir xil uchburchakka ajratamiz.




6. Hisoblaymiz.

$10 \div 1$	$30 \div 1$	$20 \div 1$	$30 \div 10$
$10 \div 10$	$40 \div 1$	$20 \div 10$	$40 \div 10$


16-dars | Bo‘lishga doir masalalar

1.



15 ÷ 3 = 5


bo‘linuvchi — bo‘luvchi — bo‘linma




12 ÷ 3 = 4

2. Basketbol musobaqasida 18 nafar sportchi 2 jamoaga bo‘lingan. Har bir jamoada nechta o‘yinchi bor?


3. Har bir likopchada nechtadan olma bo‘ladi?



4. Jami konfetlar nechta? Har bir bolaga nechtadan berilgan? Ifoda tuzib, hisoblaymiz.




5. Doiralarni ranglari bo‘yicha guruhlarga ajratsak, har bir guruhda ularning soni teng bo‘ladimi?



17-dars | Bo‘lishga doir masalalar


1. Hisoblaymiz.




4 ÷ 2 = 2	_ ÷ _ = _	_ ÷ _ = _	_ ÷ _ = _

2. Jasur 28 ta quyonni 4 ta katakka teng taqsimladi. Har bir katakda nechtadan quyon bor?

3. Do‘konga necha quti sut olib kelingan?

Jami mahsulotlar				
100 ta	?	50 ta	? ta,  dan 5 marta kam	? ta,  dan 5 ta ko‘p

4. Shakllarni ikkitadan guruhga ajratamiz va ularni turli ranglarda bo‘yaymiz.



5. Taqqoslaymiz.

14 ÷ 7 ◯ 14 ÷ 2
15 ÷ 5 ◯ 15 ÷ 3
21 ÷ 3 ◯ 21 ÷ 7

18 ÷ 3 ◯ 18 ÷ 2
24 ÷ 6 ◯ 24 ÷ 3
30 ÷ 5 ◯ 30 ÷ 6

18-dars | Ko‘paytirish va bo‘lishga doir masalalar


1. Rasm asosida bo‘sh kataklarni to‘ldiramiz.



Guruhlar soni = ☐

3 + 3 + 3 = ☐

3 × 3 = ☐



4 × 6 = ☐

6 × 4 = ☐

24 ÷ 6 = ☐

24 ÷ 4 = ☐

2. Hisoblaymiz.

18 —(÷2)→ ? —(×2)→ 18

30 —(÷3)→ ? —(×3)→ 30


36 —(÷4)→ ? —(×4)→ 36

3. 12 cm uzunlikda kesma chizamiz. Uni har biri 4 cm uzunlikdagi bo‘laklarga bo‘lamiz. Nechta kesma hosil qildik? Natijani yozamiz.

4. Siniq chiziq uzunligi kesma uzunligidan necha marta katta? Kesma uzunligi siniq chiziq uzunligidan necha marta kichik?



5. Rasm asosida hisoblaymiz.



6 × 4 = 24 ÷ 4 =

4 × 6 = 24 ÷ 6 =

19-dars | Ko‘paytirish va bo‘lishga doir masalalar

1. Rasmdan foydalanib hisoblashlarni bajaramiz.



$2 \xrightarrow{\times\ \square} 10$

$10 \xrightarrow{\div\ \square} 2$

$10 \xrightarrow{\div\ \square} 5$




$3 \xrightarrow{\times\ \square} 18$


$18 \xrightarrow{\div\ \square} 3$

$18 \xrightarrow{\div\ \square} 6$

2. Doiralarni necha xil usulda guruhlarga ajratish mumkin?



3. Olmaxon qo‘ziqoringa daraxtgacha bo‘lgan masofadan necha marta kam sakrab yetib boradi?




4. Hisoblaymiz.

53 + 12	53 − 12	67 + 23	67 − 23	75 + 22	75 − 22

5. 20 nafar o‘quvchi muzeyga chipta olish uchun 2 qatorga teng bo‘linib navbatga turdi. Har bir qatorda necha nafardan o‘quvchi bor?

20-dars | Ko‘paytirish va bo‘lish natijalarini tekshirish

1. Namuna asosida natijalarni tekshiramiz.




3 × 4 =

4 × 3 =


12 ÷ 4 =

3 × 4 = 12

12 ÷ 3 = 4



2. Ko‘paytirish bilan tekshiramiz va yozamiz.



10 ÷ □ = 5

□ × 5 = 10

3. Jadval asosida hisoblaymiz.

Hayvon bolalari	Tarozi toshlari soni			Og‘irligi (kg)
	5	2	1	
	2	4	1	?
	1	?	2	11
	?	2	3	17

4. Namuna asosida hisoblaymiz.

